



INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective

Learning and Sustainable Innovation

Vol.2 №4 (2024). April

innovativepublication.uz



ARXA IK EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI

Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna

Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek dostonchilida epos va marosim, etnos va epos munosabatining ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy asoslariga ko'ra qadimiyligi, an'anaviyligi hamda alpomishshunoslikning ilmiy nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek dostonchiligi an'anasi, variantlarida marosimlarning badiiy ifodasi, epos va marosim, etnos va epos munosabati, tarixiy

Аннотация: в данной статье освещается соотношение эпоса и обряда, этноса и эпоса в узбекском эпосе по социально-историческим, культурным и духовным основам, его древности, традиционности и научно-теоретическим основам этнологии.

Ключевые слова: традиция узбекского эпоса, художественное выражение обрядов в его вариантах, эпос и обряд, соотношение этноса и эпоса, исторический.

Abstract: this article highlights the relationship between epic and ritual, ethnicity and epic in the Uzbek epic according to the socio-historical, cultural and spiritual foundations, its antiquity, traditionality and the scientific and theoretical foundations of ethnology.

Key words: tradition of the Uzbek epic, artistic expression of rituals in its variants, epic and ritual, relationship between ethnicity and epic, historical



Xalqimizning madaniy dunyoqarashi, maishiy-kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq bunday etnografik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan badiiy motivlar quyidagi jihatlariga ko‘ra tahlil va tadqiq etilishi lozim:

1. Real-etnografik mazmuni va ma’nosi (ya’ni, tasvirlangan marosim va urf-odatning kundalik hayotning qaysi vaqtga to‘g‘ri kelishi mumkinligi) ochib beriladi.
2. Estetik mazmuni va ma’nosi (ularning epik kontekstdagi o‘rni, epik tizim bilan o‘zaro bog‘liqligi, sujetdagi roli va boshqalar) e’tiborga olinadi.
3. Ushbu motivlarda milliy ong va xalq madaniyatining ma’lum bir turi ifoda etiladi.

Marosim bilan bog‘liq motivlar qahramonlik dostonlarining asosiy sujet mavzularidan biridir. Ushbu mavzular arxaik epos sujet strukturasini tashkil qiladi va epik ijodkorlikning barcha bosqichlarini qamrab olgan.

J.Eshonqulov arxaik epos bilan marosim strukturasi o‘zaro uyg‘un kelishini asoslab, buni “Alpomish” dostoni tahlili misolida quyidagicha ko‘rsatib o‘tadi: “Shomonning shajarsi. Uning tanlanishi, homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, “Alpomish” eposida ham shajaraga alohida urg‘u berilishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya’ni ramziy o‘liklik holatidan so‘ng qayta tirilib chiqib, Qultoy qiyofasiga kirishi struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz”, – deya qayd etadi.

“Alpomish” dostonida marosimlarga xos aziz avliyolardan madad tilash motivi ham uchraydi. Binobarin, biror-bir marosimni tashkil etishdan oldin avval xudodan, so‘ngra aziz avliyolardan, nimaga sig‘inilayotgan bo‘lsa, o‘sha sohaning pirlaridan madad tilanadi.

“Alpomish” dostonida Boboxon tog‘ida yolg‘iz qolib, Boychibor bilan boylovlari qolgan Qorajon har ikkalasiga madad tilar ekan, avliyolarni shafe keltirib, iltijo qiladi. U o‘z yo‘qlovida barcha insonlarning otasi sanalgan hazrati Odam, Makka muazzamni barpo etgan payg‘ambar Ibrohim, uning o‘g‘li Ismoil, dinlarning chirog‘i Imomi A’zam, Shayx



Learning and Sustainable Innovation

Ahmad, Zinda pil, Imomi shafi, er Sulaymon, Toshkand mulkidan er bobo Zangi, saxiyning sardori Sayd Vaqqos, G‘avs bilan G‘iyos, haqning xaznachisi Xidiri Ilyos, Xo‘ja Hofiz Sherozi, hazrati Hyp, G‘avsul A’zam vali, Xo‘ja Dobil, Akbar, Shohi Zinda, Erdoniyor, Xo‘jayi Zumrati, Xo‘jayi Ahror, Erxo‘ja mozor kabi ulug‘larning nomini tilga oladi va deydi:

Avvali oblodan, duyumi pirdan,
Miskin umid qilar Aliday sherdan.
Lochinning qanoti bo‘lmasin mayib,
Baloga sabr etgan hazrati Ayub,
Uch yuz oltmish o‘ttan mardonи g‘oyib,
Kam bandang maqsadin tilar mug‘oyib.
Oting rahmon, qaytar shayton yo‘lidan.
Xoliqsan, karimsan, qahringdan qutqar,
Gunohkor bandaman, maqsadga yetkar.

Aslida bunday yo‘qlovlar shomon marosimlarining bиринчи bosqichida kuylangan. Chunki turkiy xalqlar qadimdan ruhlarning mavjudligiga, ularning abadiyligiga, ezgu ruhlarning insonga homiylik ko‘rsatishiga ishonganlar. Shunday e’tiqodiy qarashlar ular bilan muloqotda bo‘lishga qaratilgan marosimlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan. “Alpomish” qadimiylar turkiy xalqlarning mushtarak eposi sifatida ana shunday e’tiqodiy qarashlarni o‘z bag‘rida saqlab kelmoqda.

O.Qayumovning qayd etishicha: “Avliyolar yoki marhum bo‘lgan qarindoshlari, ajdodlari ruhini yod olish, ularning nomini zikr etish, ulardan madad kutish shomon yo‘qlovlarining xarakterli jihatlaridan sanaladi.

Dostonda tush ta’biriga bag‘ishlangan qadimgi marosimlar ham keltirilganligini J.Eshonqulov alohida ta’kidlab o‘tadi. Buni olim xalq orasida mavjud bo‘lgan “Yaxshi tushga ham, yomonga tushga ham sadaqa berish kerak”, “Tush ko‘rilganidek bo‘ladi” kabi maqollar qadimda biror-bir tushni ta’bir qilish uchun maxsus marosim uyushtirilgani, buqa



Learning and Sustainable Innovation

yoki qo‘ylar so‘yib sadaqa berilgani, atrofdagi eng yaxshi ta’birchilar taklif etilib, musoboqalar tashkil qilinganidan dalolat berishi orqali asoslaydi. Darhaqiqat, bunga ishoralar ko‘pgina ertak va dostonlarda ham uchraydi. Jumladan, “Alpomish” dostonida Boybo‘ri va Boysariga farzandli bo‘lishlari tushda ayon bo‘lgach, bu xosiyatli tushdan xursand bo‘lgan aka-uka yurtga ziyofat beradi. Ularning tushiga Shohimardon pir kirib, bolali bo‘lishlarini aytadi. “Bu so‘zni eshitib, biylarning juda vaqt xush bo‘lib, “tilaganimiz qabul bo‘ldi” deb, ko‘ngli to‘lib, mindi bedov otdi, qistab mazgilga qarab yo‘l tortdi. Vaqt xushligi bilan uch kecha-kunduz yo‘l yurib Boysun-Qo‘ng‘irot elatiga yetdi. Vaqt xushligiga haloyiqni, elni yig‘ib, qirq kecha-yu, qirq kunduz to‘y-tomosha berib yotdi”.

Dostonda Alpomishning otni tanlashda bobosi Dobonbiydan qolgan qo‘riqni qo‘lga olib: “Saman sariga tush, yo olapocha to‘riga tush, shapaqning zo‘riga tush”, – deb ishga kirishishi tasviri alohida e’tiborni tortadi. Bu o‘rinda so‘z sehriga tayanishni kuzatish mumkin. Qo‘riqqa “bir chipor ot” tushadi, ammo u Hakimbekka yoqmaydi va uni qo‘yib yuboradi. Biroq Hakimbekka uch martagacha bitta ot tushaveradi. Shunda singlisi Qaldirg‘och akasining ko‘nglini ko‘tarib: “...buni mingan odam ko‘p yerkarni ko‘radi, maqsadini topib qoladi”, – deydi va Boychiborni akasiga egarlab beradi. Bu motiv asosida qadimgi ajdodlarimizning “otni qiz bola yuvib tarasa, otda ijobiy o‘zgarish ro‘y beradi” degan ishonchi yotadi.

Dostonda sinchi va sinchilik bilan bog‘liq lavhalar ham e’tiborlidir. Ma’lumki, dostonda Ko‘kaldoshning sinchisi Boychiborni yaxshilab qarichlab sin solib ko‘rar ekan, “sag‘risining ustidan qulog‘ining o‘rtasigachayin to‘qson olti qarich chiqdi, ayil tortuvi oltmish uch qarich chiqdi. Sag‘risini silab, burnidan naycha qo‘yib, durbin bilan qarab qo‘ydikim, qo‘ltig‘ida to‘rt yarim gaz qanoti buklam-taram bo‘lib yotir” deya tasvirlaydi. Bunday zotdor otni ko‘rganidan hayratga tushgan sinchi Ko‘kaldoshga bor haqiqatni aytadi. Ko‘kaldosh sinchini o‘zbekning bergen porasi evaziga Boychiborni maqtayotgan hisoblab, uning ko‘zlarini o‘yib oladi.



E'tiborli jihat shundaki, "Alpomish" dostoni sujetida ana shu xalq marosimlarida ko'p qo'llanuvchi isiriq obrazi voqealar rivojiga turtki bo'luvchi badiiy detal sifatida qo'llangan. Binobarin, Alpomishni Surxayil Toychaxon bilan Zil tog'idan besh yuz arava tosh keltirib, chohga bosib o'ldirmoqchi bo'lib turganida Alpomish qo'ynida saqlab yurgan bir tutam isiriqni Tovka oyimga berib, uni oti Boychibor yonida tutatishini so'raydi. Mana o'sha misralar:

Isiriq nishon beray sening qo'lingga,

Borib tutat otim turgan yerina.

Tovka oyim Alpomishning ushbu iltimosini ado etadi. Isiriq tutuni burniga kirgan ot yotgan o'rnidan otilib turadi. Bo'yni va oyog'idagi g'ullarni sochib tashlab, choh oldiga yuguradi va u yerda yotgan egasi Alpomishni yollari bilan chohdan tortib oladi. Ozod bo'lgan Alpomish Qayqubod bilan birlashib, Toychaxonga qarshi kurashadi va uni yengadi. Dostonda uchraydigan quyidagi olqish ham alohida e'tiborni tortadi: "Sening o'ldirganing o'rol, so'yaning halol". Bunday olqish, odatda, qassoblik kasbini olayotganlarga qo'l berishda ustoz qassoblar tomonidan aytildi. Shuning uchun xalq maqollarida "Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin" deyiladi.

O'tmishda poligam oilalar, ya'ni bir ayol yoki bir necha erkaklarning yoki aksincha, bir erkak va bir necha ayolning bir oilada yashashi mumkin bo'lganligi ma'lum. "Alpomish" dostonida to'qson alpning Boysari huzuriga "Kelgan boy, sening bir qizing bor ekan, qani, birimizga berasanmi, barimizga berasanmi? Birimiz olaylikmi, yo barimiz olaylikmi? Shu so'zga nima javob aytasan?" degan nutqida bevosita shu o'tmish voqeligi qoldig'iga ishora bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpomish. Doston. O'zbek xalq qahramonlik eposi / Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar H.Zarifov va T.Mirzayev. – Toshkent: Sharq, 1998. – 400 b.



2. Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Birinchi jild. Doston. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 512 b.
3. Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. To‘rtinchi jild. Dostonlar. Muhammad Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Berdiyor Pirimqul o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 444 b.
4. Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. O‘ninchchi jild. Dostonlar. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li va Egambedi Ollomurod variantlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 504 b.
5. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Aytuvchi: Xo‘shboq baxshi Mardonaqul o‘g‘li. Yozib olib nashrga tayyorlovchi T.Turdiyev. – Toshkent: Tafakkur, 2014. – 80 b.
6. Alpomish. Aytuvchilar: Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li. Yozib oluvchilar: Oxunjon Sobirov, Qosimxon Muhammedov. Nashrga tayyorlovchilar: To‘ra Mirzayev, Jabbor Eshonqul. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi – 2018. – 368 b.
7. Dada Qo‘rqt hikoyalari. – Toshkent: “Yurist media markazi”, 2010. – 40 b.
8. Manas. Qirg‘iz xalq eposi. 2-kitob. S.O‘zrozbek o‘g‘li varianti bo‘yicha. S.Akbariy tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – 200 b.
9. Oy oldida bir yulduz. O‘zbek xalq marosimi qo‘shiqlari. To‘plib, nashrga tayyorlovchi, kirish so‘zi va izohlar muallifi M. Jo‘rayev. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 160 b.
10. O‘rayeva D. “Jarxon maston” dostonidagi arxaik epos va marosim uyg‘unligi // Qodir baxshi abadiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi: QarDU nashriyoti, 2012. – B.47-50.



11. Qayumov O. Shomon yo‘qlovlarining o‘ziga xos xususiyatlari // O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2006. – B.64-68.
12. G‘oziboyev T. “Alpomish” dostonining Namangan variantlari // O‘zbek tilshunosligi va o‘zbek adabiyoti masalalari. – Toshkent, 1967. – B.3–12.